

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

6-2023

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>F.Xalikov</b>	
Ta'lim tizimida testologiyadan foydalanishning nazariy asoslarini takomillashtirishning pedagogik ahamiyati .....	211
<b>A.A.Mirzayev</b>	
Ibn al-Arabiyning tasavvufiy qarashlarining asosiy yo'nalishlari va yondashuvlari .....	217
<b>S.A.Azamova</b>	
Yoshlarda ekologik madaniyatni shakllantirishda ekologik tarbiyaning samarali yo'llari va bosqichlari .....	223
<b>M.I.Yusupova</b>	
Expression of the concept of "Patriotism" in the russian-language media.....	231
<b>M.M.Aralov</b>	
OTM talabalarining grafik tayyorgarlikligini rivojlantirish vositasi sifatida .....	235
<b>U.Abdullayeva</b>	
Bo'lajak kimyo o'qituvchilarining metodik kompetentligini takomillashtirishda ekologik ta'lim va tarbiyaning ahamiyati hamda ularning qiyosiy tahlili .....	124
<b>Y.J.Mirzaaxmedova</b>	
Bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarida o'zbek musiqasi tarixiga doir bilimlarni rivojlantirishning pedagogik-psixologik asoslari .....	241
<b>J.X.Boysunov</b>	
Yoshlarda ma'naviy madaniyatini yuksaltirishning falsafiy mohiyati.....	246
<b>B.I.Beshimov</b>	
Jinoyatchilik ijtimoiy hodisa va uning tahlili .....	250
<b>Z.N.Usmonov, M.A.Mirzajonova</b>	
Umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilarining jismoniy madaniyat fani nazariy bilim asoslarini o'qitishni monitoringi .....	255
<b>M.X.Raxmonova, M.O.Karimova</b>	
Boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy potensialini pivojlantirishning dolzarbligi va mohiyati....	260
<b>N.S.G'afurova</b>	
Ijtimoiy tarmoqlar punktuatsiyasining pragmatikasi.....	261
<b>G.M.Камалова</b>	
Методология преподавания физической культуры в вузах на современном этапе.....	266
<b>R.M.Ubaydullayev</b>	
Qishloq qizlari jismoniy tayyorgarligini tabaqalashtirilgan metodika orqali baholash .....	270
<b>A.K.Nafasov</b>	
Tarixda sivilizatsiyalarning shakllanishi tarixi xususida .....	274
<b>F.A.Ikramov</b>	
Mustaqil ta'lim faoliyati asosida talabalarining huquqiy ta'limini tashkil etishning pedagogik omillari.....	277
<b>D.T.Tursunova</b>	
Talaba xotin-qizlar ijtimoiy faolligini rivojlantirishning mazmuni va psixologik asoslari .....	281
<b>D.D.Boymirzaeva</b>	
O'zbekistonda oliy ta'lim muassasalarida tashkiliy faoliyat va boshqaruv amaliyotining mavjud muammolari tahlili .....	286
<b>I.I.Soliyev</b>	
Yangi O'zbekistonda OTMLar boshqaruviga xalqaro standartlarni joriy qilish vazifalari.....	292
<b>S.S.Qozaqova</b>	
Hikoya tuzishga o'rgatish maktabgacha yoshdagi bolalarning bog'lanishli nutqini rivojlantirishning muhim vositasi sifatida .....	298
<b>F.A.Askarov</b>	
Jismoniy tarbiya darsi jarayonida interfaol usullar ta'lim samaradorligini asosiy bo'g'ini sifatida ..	304
<b>D.Z.Isaboyeva</b>	
Boshlang'ich ta'lim o'quvchilarida zamonaviy ko'nikmalarni shakllantirishning pedagogik psixologik asoslari (xalqaro baholash dasturi) .....	308
<b>M.I.Ne'matov</b>	
O'quvchilarning jismoniy madaniyatini rivojlantirishning etno-pedagogik asoslarini takomillashtirish .....	311

**TALABA XOTIN-QIZLAR IJTIMOY FAOLLIGINI RIVOJLANTIRISHNING MAZMUNI VA PSIXOLOGIK ASOSLARI****СОДЕРЖАНИЕ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ СОЦИАЛЬНОЙ АКТИВНОСТИ СТУДЕНЦОВ****CONTENT AND PSYCHOLOGICAL BASES OF DEVELOPMENT OF SOCIAL ACTIVITY OF STUDENT WOMEN****Tursunova Dilnavoz To'liqin qizi<sup>1</sup>**<sup>1</sup>Farg'ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi**Annotasiya**

*Mazkur maqolada ijtimoiy faollik tushunchasining mazmun-mohiyati va uning gender xususiyatlari, ijtimoiy faollik keng qamrovli kategoriya bo'lib, ta'lim-tarbiya jarayonida talabalarning ijtimoiy faolligini oshirish deganda, ularni barcha sohalarida faol bo'lishlarini ta'minlash, bilim va ko'nikmalarini shakllantirish, tashabbuskorliklarini oshirish to'g'risidagi fikr mulohazalar bayon qilingan.*

**Аннотация**

*В данной статье раскрывается сущность понятия социальный активизм и его гендерные характеристики, социальный активизм является всеобъемлющей категорией, и в процессе воспитания он означает повышение социальной активности студентов, обеспечение их активности во всех сферах, знания и опыт. Изложены мнения о формировании навыков и повышении инициативности.*

**Abstract**

*In this article, the essence of the concept of social activism and its gender characteristics, social activism is a comprehensive category, and in the process of education, it means increasing the social activism of students, ensuring that they are active in all areas, knowledge and experience. Opinions about forming skills and increasing initiative are presented.*

**Kalit so'zlar:** oliy ta'lim, gender xususiyatlari, zamonaviy dunyoqarash, bilim va ko'nikmalar, uzluksiz ta'lim, boshqaruv vazifalari, barkamol inson, faol bo'lish, fuqarolik jamiyatini, xotin-qizlar.

**Ключевые слова:** высшее образование, гендерные характеристики, современное мировоззрение, знания и навыки, непрерывное образование, управленческие задачи, всесторонне развитая личность, активная личность, гражданское общество, женщины.

**Key words:** higher education, gender characteristics, modern worldview, knowledge and skills, continuing education, management tasks, well-rounded person, being active, civil society, women.

**KIRISH**

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ijtimoiy islohotlar muvaffaqiyatining muhim sharti xalqimizning, har bir fuqaroning ijtimoiy faolligiga tayanishdir. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, jamiyatimizda ta'lim-tarbiya sohasida amalga oshirilayotgan demokratik islohot jarayonlari, fuqarolarning milliy ma'naviy va ma'rifiy salohiyatlari, ijtimoiy faolliklari turli tuman bo'lishiga qaramay, umuminsoniy qadriyatlarining ustuvorlashuviga olib kelmoqda.

Keyingi yillarda talaba xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini oshirish, ularning ta'lim-tarbiyasiga bog'liq ko'plab ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida talaba xotin-qizlarning ijtimoiy faollik asosida tarbiyalash, ularni tarixiylik va zamonaviylik an'alarini yaxshi anglaydigan shaxs qilib yetishtirish va rivojlantirish masalasi ushbu sohadagi faoliyatning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu o'z navbatida mamlakat kelajagi va taraqqiyotini ko'p jihatdan belgilab beradi hamda shu asnodan, talaba xotin-qizlarni har tomonlama salohiyatli bo'lib tarbiyalanishi, ularning muayyan kasb-hunar yoki sohaning ustasi bo'lishi uchun mustahkam zamin hozirlaydi.

Ayni paytda, alaba xotin-qizlarning zamonaviy tafakkurini o'stirish, bu boradagi muammolar va yechimlarni ijtimoiy-pedagogik tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Zero, jamiyatga yangilanish va vorisiylik munosabatlari o'zaro muvozanat asosida qurilsagina, bunda uning barqaror rivoji kuzatilishi mumkin.

Talaba xotin-qizlarning kuchli ijtimoiy, kasbiy-psixologik, faolligini quyidagilar tashkil qiladi: muloqotchanlik va rivojlangan tasavvur empatiya va yuqori sezgirlik bilan birgalikda; yaqqol ifodalangan altruizm va muloqotdan quvonch hurmatga va o'zini-o'zi takomillashtirishga ehtiyoj bilan birgalikda, beg'arazlik va qalbning mustahkamligi, yuqori axloqiylik, to'g'ri so'zlik va adolat, shaxsiy maftunkorlik va boshqalar.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarida talaba xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini oshirishda ulardagi yetakchilik salohiyatini oshirish va ta'lim muassasasidagi faoliyatiga ko'maklashtirish talab etiladi. Ta'limdagi yetakchi – ta'lim mazmunini sifatli yangilash g'oyalarining uzatuvchisi, pedagogik jarayonning barcha yo'nalishlarini maksimal optimallashtira oluvchi, innovasion yo'nalishlarni ishlab chiqish va amalga oshirish imkoniyatlariga ega bo'lgan ijodiy jamoani tashkil eta oladigan insondir. Pedagogik yetakchi jamoalardagi ko'pgina holatlar ma'murlarning faol pozitsiyalariga bog'liq bo'ladi. Aynan ular ta'lim siyosatining dastlabki yaxlit ko'rinishini tashkil etadi. Mavjud boshqaruv uslubi ta'lim muassasasining asosiy zaxirasi sifatida qaraladi.

Ekspertlarning fikriga ko'ra, talaba xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini rivojlantirishga ta'sir ko'rsatuvchi omillar quyidagi tartibiga ega:

**2.1-jadval****Talaba xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini rivojlantirishga ta'sir ko'rsatuvchi omillar**

<b>№</b>	<b>Omillar</b>	<b>Foizda(%)</b>
1.	Jamoadagi muhit	- 83%;
2.	Moddiy-texnik imkoniyat	- 73%;
3.	Ijtimoiy faollik ichki motivatsiya, istak va ehtiyojning mavjudligi	- 47%;
4.	Ilmiy muassasalar bilan hamkorlik	47%;
5.	Boshqaruv organlarining qo'llab-quvvatlashi	- 45%;
6.	Ijtimoiy muhit	- 32%;
7.	Me'yoriy-huquqiy baza	- 24%.

Ijtimoiy faollikning alohida ahamiyatli shaxs sifatlari majmuining birinchi beshligini quyidagilar tashkil etadi: kompetentlik (84% ekspertlar), yuqori axloq (72%), rostgo'ylik va adolat (60%), aql-zakovat (54%), tashabbuskorlik (52%). Shunday qilib, talaba xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini aniqlashning uchta mezonlarini alohida ajratdilar: yuqori kasbiy daraja, yuk sak dunyoqarash va ijtimoiy munosabatlarda muloqotchanlik qobiliyati. Bu mezonlar ijtimoiy faol talaba xotin-qizlar shaxsiyatining eng ahamiyatli shaxsiy sifatlari deb ham belgilanadi.

Talaba xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini rivojlantirish uchun dolzarb hisoblangan tushunchalar: «o'zini-o'zi bilish», «o'zini-o'zi boshqarish», «o'zini-o'zi tashkil qilish», «o'zini-o'zi amalga oshirish», «mustaqil faoliyat», «o'zini-o'zi nazorat qilish», «o'zini-o'zi baholash», «o'zini-o'zi ishontirish», «o'zini-o'zi rivojlantirish». Har bir inson – murakkab tizim ekanligi sababli, quyidagi yuqori darajadagi qobiliyatlarga ega bo'lish lozim:

1) o'zini-o'zi bilish, o'zini, o'z afzallik va kamchiliklarini yetarlicha yaxshi bilish; o'zining bilimlari, kasbiy malakalaridamda shaxs sifatlarining darajasini bilish;

2) o'zini-o'zi aniqlash, muloqotda nima istashini, o'zining asl ehtiyojlarini aniq bilish, mavjud muammolarini ko'rish va belgilangan maqsadlarga erishishga nima to'sqinlik qilishi mumkinligini prognozlash, o'zi uchun yaqin va istiqboldagi vazifalarni belgilash;

3) o'zini-o'zi tashkil qilish, o'z hayotini, kunlik, haftalik, oylik ishlarini va istiqboldagi ishlarini aniq rejalashtirishni bilish. O'z kuchi va vaqtdan oqilona foydalana olish. O'z faoliyatini u nafaqat aniq natijalar beradigan tarzda, balki faoliyat jarayonidan qoniqish hosil qiladigan tarzda tashkil etish, maqsadga erishish uchun intilish, zarur bo'lganida autotrening, relaksatsiya usullarini qo'llab zo'riqishni yengish;

4) o'zini-o'zi amalga oshirish – bu zarur bo'lganida o'z imkoniyatlari doirasida o'zini namoyon etish ko'nikmasi. O'ziga va boshqalarga nimalarga qodir ekanligini isbotlash. Tabiiyki, bunda avvalo o'zining ijodiy imkoniyatiga tayanish.

5) mustaqil faoliyat – bu tashabbus, mustaqillik, erkinlikni ifodalash ko'nikmasi hisoblanadi;

6) o'zini-o'zi nazorat qilish – bu shaxsning har bir yangi faoliyat turiga nisbatan optimal moslashish ko'nikmasidir. Ularni qo'llab o'z vazifalarini eng kam xatoliklar bilan, ya'ni sifatli va samarali bajarish;

7) o'zini-o'zi baholash – bu avvalo o'zining shaxsiy sifatlarini oshirmay va pasaytirmay ob'yektiv baholash ko'nikmasi;

8) o'zini-o'zi ishontirish – bu o'zini-o'zi biror-nimaga ishontirish, bu asosda o'zini, o'z xulqini o'z irodasiga va o'z aqliga bo'ysundirish ko'nikmasi hisoblanadi. Bu o'zini-o'zi

ishontirish asosida zarur sharoitlarda emosional-asab zo'riqishini yengish qobiliyatidir;

9) o'zini-o'zi rivojlantirish – bu o'zining ijodiy, kasbiy va boshqa sifatlarini takomillashtirib, o'z ustida faol ishlash ko'nikmasi.

Yuqorida sanab o'tilgan sifatlar talaba xotin-qizlarning o'zini-o'zi boshqarish imkoniyatlarini yetarlicha to'liq aks ettiradi. Shu tariqa, talaba xotin-qizlarning o'zini-o'zi boshqarishga qobiliyati – bu o'zini-o'zi bilish, o'zini-o'zi aniqlash, o'zini-o'zi tashkil qilish, o'zini-o'zi amalga oshirish, mustaqil faoliyat, o'zini-o'zi nazorat qilish, o'zini-o'zi ishontirish, o'zini-o'zi ishontirish, o'zini-o'zi rivojlantirish qobiliyatlarini o'z ichiga oluvchi sifatlar sintezi bo'lib, ular shaxsga o'zini faoliyat va muloqotning turli ko'rinishlarida sifatli va samarali boshqarish imkonini beradi. So'ngra, o'zini-o'zi boshqarishga o'z qobiliyatlarini o'rganish, baholash uchun ularning rivojlanish darajasini aniqlashga imkon beruvchi usullarni topish zarurdir. O'zini-o'zi boshqarishga qobiliyatlarning turini ham aniqlash zarur.

### NATIJALAR

Shuningdek, talaba xotin-qizlarda ijtimoiy faollikni rivojlantirishda ulardagi tom ma'nodagi ziyolilikni shakllantirish talab etiladi. Chunki ziyolilikka talaba xotin-qizlarning ijtimoiy munosabatlarda faol, muloqotchan va tashabbuskor bo'lishiga asos bo'ladi. Umuman olganda, ziyolilik – shaxsning bir yoki ikki sifati emas, balki uning fuqarolik, umummadaniy, axloqiy, intellektual qadriyatlari va intilishlarining integral ifodasi ekanligini ta'kidlash lozim. Ziyolilik (intelligentlik) doimo o'zida axloqiylik (vijdonlilik, oqibatlilik, axloq, haqgo'ylik, kamtarlik, samimiylik) me'yorlarida mujassamlagan, ammo u albatta faqatgina ular bilan cheklanmaydi, balki yanada yuqori darajadagi axloqiy sifatarni qamrab oladi. Bu xalq manfaatlar uchun aqliy ijodning qadr-qimmatini anglash, xalqqa xizmat qilish, o'ziga va boshqalarga talabchanlik, fuqarolilik hissi va fuqarolik jasurligi, haqiqat uchun kurashda qat'iyatlilik, demokratik fikrlash, erkin shaxsining o'z qadr-qimmatini hissi hisoblanadi.

Ziyolilik – bu fuqarolilik, axloqiy, aqliy va umummadaniy shaxs sifatlarining sintezi ekanligini inobatga olsak, unda yuqorida sanab o'tilgan baholash shkalasini tuzish mumkin bo'ladi. Masalan, talaba xotin-qizlarning axloqiy sifatleri yoki aqliy, fuqarolik holati yoki uning rivojlanishi umummadaniy darajasidan qaysi biri muhimroq ekanligini ko'rsatish qiyindir. Shuning uchun talaba xotin-qizlarni ziyoli sifatida tavsiflovchi, uning barcha yuqorida keltirilgan sifatlarini muvozanatlashtirish uchun har bir blokda, masalan, to'qqizta sifatlar bo'yicha ma'lum sonni tanlash va ularga teng birliklarni belgilash zarur.

Taklif etilgan metodikada mustaqil tavsiflar metodi qo'llaniladi. Buning uchun talabalarning ziyoliligini tavsiflovchi, quyidagi sanab o'tilgan shaxs sifatleri bir-biridan alohida uch marta baholanadi: a) talabaning o'zi, b) yaqin do'sti, v) unga bir muncha tanqidiy munosabatda bo'lgan inson tomonidan. So'ngra har bir sifat bo'yicha bu uchta mustaqil qo'yilgan baholarni qo'shish va uchga bo'lish lozim, bunda ob'yektiv o'rta baho hosil bo'ladi.

Bugungi tezkor davrda talaba xotin-qizlarning ijtimoiy faolligi quyidagi sifatleri shakllanishi asosida ro'y beradi. Ularga:

Muqobilik – turli masalalar bo'yicha takliflarni ko'p variantli ishlab chiqish qobiliyati.

Moslashuvchanlik – ijtimoiy munosabatlar va vaziyatlardagi o'zgaruvchan sharoitlarga moslasha olish qobiliyati.

Intizomlilik – ijtimoiy munosabatlarda va faoliyat yuritishda intizom qoidalarini hurmat qilish sifati.

Korporativlik – ijtimoiy faollikni namoyon qilishda va faoliyat yuritishda manfaatlar va harakatlarning umumiyiligini ta'minlashda jamoa manfaatleri uyg'unligi.

Shaxsiy mas'uliyatlilik – o'z majburiyatlarini, anglash va shu asosda faoliyat yuritish qobiliyati.

Ilmiylik – ijtimoiy faoliyatda im-fan yutuqlariga tayanish, ilmiy dunyoqarash asosida faoliyatni olib borish.

Tezkorlik – o'z vaqtida qarorlar qabul qilish va munosabat bildirish qobiliyati.

Rejalilik – barcha ishning boshlanishi, uzoq muddatli rejalarni va ijtimoiy faollik nisbatlarini belgilash hisoblanadi.

To'liq bandlik – muammolar tezkor, adolatli va samarali hal etiladi.

### 2.6-jadval

#### Ijtimoiy faol talaba xotin-qizlarda uchraydigan umumiy sifatlar

Sifatlar guruhi	Sifatlar tavsiflari
<b>Fiziologik sifatlar</b>	Yoqimli tashqi ko'rinish (yuz, bo'y, gavda, vazn), ovoz, yaxshi salomatlik, yuqori ishlash qobiliyati, shijoat
<b>Psixologik sifatlar</b>	Shaxs turi: ekstravert, introvert. Temperament: flegmatik, sangvinik, xolerik. Hukmronlik, shijoatlilik, tajovuzkorlik, ustunlik, bosiqlik, mustaqillik, dovyuraklik, ijod, o'zini-o'zi tasdiqlash, tirishqoqlik, jasurlik.
<b>Intellectual sifatlar</b>	Intellektning yuqori darajasi: aql, mantiq, xotira, diqqat, ensiklopedik bilimlar, keng dunyoqarash, sezgirlik, o'ziga xoslik, tafakkur tezligi, ma'lumotlilik, zehnlilik, konseptuallik, hazil hissi.
<b>Shaxs sifatleri</b>	Ishbilarmonlik sifatleri: tashkiliylik, tartib-intizomlilik, ishonch, diplomatik, tejamkorlik, moslashuvchanlik, mas'uliyatlilik, tashabbuskorlik, mustaqillik. Shaxs sifatleri: mehribonlik, sezgirlik, ishtirok etish, haqqoniylik, tartibli, ziyraklik, ishonch, e'tiborlilik, kommunikabellik, moslashuvchanlik.

### NATIJALAR

Tajriba-sinovda qo'llanilgan ishbilarmonlik o'yinlari, ta'limdagi ijtimoiy faol talabani shakllantirish bosqichlarini aks ettirdi. Bunday ishbilarmonlik o'yinlarining siklini tajriba-sinov ishtirokchilari shartli ravishda «Olov, suv va mis quvurlar» deb nomladilar. Muhokama jarayonida «Ijtimoiy faol talabning axloqiy portreti» va «Ijtimoiy faol talabning axloqqa zid portreti» tuzildi. «Ijtimoiy faol talabning axloq» jadvalida bu natijalar keltirilgan.

#### 2.7- jadval

#### Ijtimoiy faol talabning axloqi

Ijtimoiy faol talabning portreti	
Axloqqa zid	Axloqiy
1. Shuhrat, tan olinishni shaxsiy maqsadlarida qo'llaydi.	Shuhrat, tan olinishni jamoa, ijtimoiy faoliyatda qo'llaydi.
2. O'ziga nisbatan tanqidni to'xtatadi.	Tanqidni inobatga oladi, undan xulosa chiqaradi.
3. Boshqalarning qiziqishi va intilishlarini bostiradi.	O'z kursdoshlarining qiziqishlari, ehtiyojlari, intilishlarini ustuvor hisoblaydi.
4. O'z ishi uchun alohida sharoitlarni talab etadi.	Ijtimoiy faoliyat va ijtimoiy faollikni namoyon qilishda ijodiy yondashuvni qo'llaydi.
5. Kursdoshlari va kasbdoshlarini e'tibordan chetda qoldiradi, rahbariyatga o'zini namoyon etadi	Kursdoshlar, hamkasblar va rahbariyat bilan muloqotda qadr-qimmatni saqlaydi.
6. Kursdoshlar va hamkasblarning qiziqishlari va ehtiyojlarini inobatga olmaydi.	Kursdoshlar va hamkasblariga hozirjavob, ularni rivojlantiradi va qo'llab-quvvatlaydi, o'z muvafaqiyatini boshqalar bilan baham ko'radi.
7. O'z manfaatlarini qondirish uchun ikkilamchi standart axloqi bo'yicha harakat qiladi.	Ichki madaniyat prinsiplari bo'yicha ishlaydi, manfaatlarga erishishda ma'naviy standartga rioya etadi.

Ijtimoiy faollikni rivojlantiruvchi sifatlarini baholash uchun ko'pincha F.Fidler so'rovnomasining turli variantlaridan foydalaniladi. Tajriba-sinovda ijtimoiy faollikni rivojlantiruvchi sifatlarini baholash uchun mazkur so'rovnoma varianti qo'llanildi. So'rovnoma o'z ichiga yorqin ifodalangan qarama-qarshi ahamiyatga ega bo'lgan o'nta sifatlarini kiritadi. Shkala bo'yicha chapdan o'ngga tomon siljishda asta-sekin salbiy sifat yo'qoladi va ijobiy o'sib boradi. Mos sifatlarini baholashda shkalada tajriba-sinov ishtirokchilarining fikriga ko'ra ijtimoiy faollikni rivojlantiruvchi sifatlarini ifodalaydigan raqamni doira bilan belgilash zarur.

#### 2.8- jadval

#### Ijtimoiy faollikni rivojlantiruvchi sifatlarini baholashga asos bo'luvchi tushunchalar

Sifatlar	Sifatlar
Tajovuzkorlik	Xayrixoxlik
Yolg'onchilik	Haqgo'ylik
Begonalik	Hamkorlik
Dushmanlik	Do'stlik
Moslashuvchanlik	Prinsipiallik
Befarqlik	Ishtiyiq
Apatiya	Maqsadga intilish
Ijtimoiy himoyasizlik	Ijtimoiy himoyalanganlik
Mas'uliyatsizlik	Mas'uliyatlilik
Ijtimoiy faollik uchun sharoitlar yo'qligi	Ijtimoiy faollik uchun sharoitlar mavjudligi

### XULOSA

Xulosa qilganda, talaba xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini oshirishning psixologik asoslarini tadqiq etish va uning mezonlarini aniqlash ularning ijtimoiy-siyosiy faoliyatini o'sishiga ta'sir ko'rsatuvchi ichki omillarni aniqlashga imkon beradi.

Talaba xotin-qizlar tomonidan yuqori axloqiy majburiyatlarni o'z faoliyatiga ko'rsatma sifatida idrok etish ularning ruhiy holatiga ijobiy ta'sir qiladi. Bu holatda talaba xotin-qizlarga motivasion o'zini-o'zi boshqarish tizimida dono xulq prinsiplariga rioya etish to'g'risidagi tavsiyalarni berish o'rinli bo'ladi.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Головин С.Ю. Словарь практического психолога. 1998. Минск. ХАРВЕСТ. С.14
2. Маънавият, Асосий тушунчалар изоҳли луғати, "Ф.Фулум", -Т.: 2016. -Б. 82-85.
3. Каримова В.М., Акрамова Ф.А. Психология. –Т.: Ўқитувчи.2000. Б- 48
4. Л.Д.Столяренко. Основы психологии. «Феникс» Ростов-на-Дону. 2000 г., С. 75-79
5. МитинаО.В. «Женщина в обществе. Женское гендерное поведение в социальном и кросскультурном аспектах». М.: Общественные науки и современность. №3, 1999.с.179-180
6. Щелокова Е.Г. авто.реф диссертации на тему «Ценности-смысловое содержание карьерной направленности». ФГБОУВПОЮжно-УральскийГосударственныйУниверситет(НИУ). Челябинск. 2012, с.5
7. Леонтьев А.Н. Деятельность, сознание, личность. М.: 2005